

**Guliston davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi,
Psixologiya fanlari doktori, dosent,
Sharapova Saboxat Djabbarovna
taqrizi ostida**

**Eshonqulova Muhabbat G‘aniyevna
Sirdaryo viloyati, Guliston tumani
6-maktabning Boshlangich sinf oliy
toifali o‘qituvchisi
+998996199929
Qosimovnurilla76@gmail.com**

XXI ASR - TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Maskur maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, umumiy o'rta ta'limida texnologiyalarning ahamiyati, ulardan samarali foydalanish, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim texnologiyalarni qo'llash haqida ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Umumiy o'rta ta'lim, pedagog, ko'nikma, ta'limning maqsadi, innovatsiya, texnika, texnologiya ta'limning uzluksizligi.

XXI CENTURY - THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING EDUCATIONAL EFFICIENCY

Annotation: In this article, the possibilities of using educational technologies to increase the effectiveness of education, the importance of technologies in general secondary education, their effective use, as well as the use of educational technologies in the process of education and training are touched upon.

Key words: General secondary education, pedagogue, skill, purpose of education, innovation, technique, technology continuity of education.

XXI ВЕК – РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассмотрены возможности использования образовательных технологий для повышения эффективности образования, значение технологий в общем среднем образовании, их эффективное использование, а также информация об использовании образовательных технологий в процессе обучения и воспитания. обсуждалось.

Ключевые слова: Общее среднее образование, педагог, мастерство, цель образования, инновация, методика, технология, непрерывность образования.

Hozirda umumiy o'rta ta'lim jarayonida ta'lim samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asaridagi quydagi so'zlari juda katta ahamiyatga egadir: “Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuklar zamirida avvalo ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar

mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o‘lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz”. [1] Darhaqiqat ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan o‘lmas asarlar, ilmiy kashfiyotlar bugungi davr yoshlari uchun bitmas-tugalmas ilm, ibrat va ulkan kutubxona vazifasini o‘taydi.

Hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida, umumiy o‘rta ta‘limni tashkil etilishdan kutiladigan natija yo‘qligidek, ortiqcha daxmaza yo‘l qo‘ya olmaydi. O‘qitish natijasi aniq va erishiladigan bo‘lishi lozim, aks holda, tayyorlangan mutaxassislariga ehtiyoj ham noaniq bo‘ladi va ular talab qilib olinmaydi. An’anaviy o‘quv jarayoniga tayangan oliy ta‘lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo‘lmaydi.

XXI asrni axborot texnologiyalari asri deb bejizga aytilmagan. Hozirgi vaqtda hayotimizni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “Hozirgi kunda ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta‘limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo‘lib qolmoqda”[1]. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta‘lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimi barpo etilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim sohasiga kirib kelishi ta‘lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta‘lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. “Shuning uchun yoshlarimiz olgan bilimlarni ularning e‘tiqodiga aylanishi juda muhimdir. Mana shu vazifalarni amalga oshirishda Ukuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim talabdir. Biz faqat ana shunga asoslanib bolalarni mustaqil o‘ylashga o‘rgatishimiz, ularda o‘zlarining qarashlari va nuqtai nazari tizimini tarkib toptirishimiz mumkin”[2].

Ta‘limda yuqori samaradorlikka erishish uchun o‘qitishning noan’anaviy metodlaridan, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlaridan dars mavzusiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, o‘qituvchining mashaqqatli mehnati bilan bosqichma-bosqich, mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko‘tarilishidir.

Barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelganligi barchamizga ma‘lum. Buyuk donishmand Abu Ali Ibn Sino o‘z pedagogik qarashlarida “Har bir kishini uning borlig‘i va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak. Aks holda ta‘lim-tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi”, degan g‘oyani ilgari suradi. Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy va boshqa yirik mutafakkirlar ta‘lim-tarbiya haqidagi masalalarni hal qilishda asosiy e‘tiborni (bola) shogirdning bajarishi talab qilinadigan shartlarga qaratganlar. Darhaqiqat, pedagogning eng muhim sifati – har doim biror narsani o‘ylab topishga intilish, bolalarni ham shunday faoliyatga undash hisoblanadi. “Bolalarni o‘ylashga o‘rgatish uchun ularda o‘ylab topish ko‘nikmasini shakllantirish kerak” (Dj.Rodari). Aynan o‘z-o‘zini rivojlantiradigan, doimiy takomillasha oladigan pedagoggina zamonaviy maktab ta‘limi oldiga qo‘ygan vazifalarni bajara oladi. Bunday pedagog bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi-[4]

“Innovatsiya” (ing. innovation — kiritilgan yangilik, ixtiro) so‘zi - ishlab chiqarish sohasida paydo bo‘lgan. Dastavval bu tushuncha texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun sarflangan iqtisodiy mablag‘lar, ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalarda va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi kabi tushunchalar bilan izohlangan. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga

qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi ham mumkin. Bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. [5]

Pedagogik texnologiya asosida pedagogik ilmiy usul va ko'nikmalarni, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o'quv jarayonini ro'yobga chiqaruvchi obyektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi tushuncha yotadi. Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlar qanday ro'yobga chiqarilsa, pedagogik ishda ham shunga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. Yuqori malakali pedagog o'zining pedagogik layoqati tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi. O'qitish jarayonining mavjud obyektiv qonuniyatlarni o'rganish va amaliyotda qo'llash, o'qitishda zaruriy natijaga erishish, ma'lum darajada hattoki pedagog va o'quvchining qobiliyatiga mos emas degan xulosaga olib keladi. Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va obyektivlashtirilgan bo'lsa uni amalga oshirish uchun shunchalik oz qobiliyat talab etiladi. Ushbu xulosa ommaviy ta'limning butun jarayonida o'z isbotini topdi. Bundan tashqari, kompyuterli o'qitishni joriy etish amaliyoti, odamni bevosita ishtirok etmasligida ham o'qitishning usullari va uslublari tizimining amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Ta'lim samaradorligini oshirish jarayonida pedagogik texnologiya muhim ahamiyatga ega bo'lib, darsga zamonaviy talablar asosida yondashishni talab etadi. Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktablarining yetakchi bo'g'ini bo'lgani sababli ta'lim jarayonini zamonaviy innovatsion texnologiyalar talablari darajasida tashkil etish har bir ta'lim oluvchiga davlat ta'lim standartlari asosida bilim olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa har bir o'quvchining ilmiy, aql-zakovatli bo'lishini, o'z tilida aniq, erkin va mantiqiy fikrlashni ta'min etadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida texnika-texnologiyalar, pedagogik hamda axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida ya'niki pedagogik faoliyatda qo'llashga e'tibor kundan-kun kuchayib bormoqda, chunki bu shaxsni shakllanishi va rivojlanishiga, kamol topishiga, bilim olishiga sharoit yaratadi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Shunday ekan muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so'zlari qanchalik to'g'ri ekanligi yana bir bor o'zida aks etadi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatiga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirish lozim. Biz mana shu sohaga e'tibor berar ekanmiz undagi ba'zi moddiy va ma'naviy kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qilamiz. Shunday ekan xalqimiz o'z bolalarini o'sib– unib kamolga yetishini, xalq koriga yaraydigan shaxs bo'lib yetishishini istaydi va bu yo'lda tinmay harakat qiladi. Vatanimizda inson manfaatlari ya'ni avvalo inson omiliga bo'lgan e'tibor birinchi o'rinda bo'lib kelgan. Bugungi kunda texnika-texnologiyalar o'qituvchi kasbi faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlovchi usul va uslublar yig'indisi deb topildi. Muammolardan kelib chiqib quydagilarni keltirish mumkin, ya'ni :

- darsning maqsad va vazifasi o'qituvchi va o'quvchi diqqat markazida bo'lishi;
- pedagogic bilimlarni aniq ,ravshan ,ilmiy va tushunarli bayon qilish;
- o'quvchilar o'z ustida ishlashi, mantiqiy fikrlay olishiga erisha olish;

- darsni mazmunli, keng qamrovli, qiziqarli bo'lishini va elab qolishini ta'minlash;
- o'quvchilar ruhiy, intellektual salohiyati va jismoniy holatini hisobga olish;
- vaqtdan samarali foydalana olish.

Yuqoridagilani hisobga olgan holda takliflar berish maqsadga muvofiqdir. Taklif va mulohazalar masofaviy muloqot o'rnatish; quydagilardir. Jumladan:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, litsey, texnikumni texnologiyalarning nazariy asoslari bilan qurollantirish;
2. Texnika- texnologiya samaradorligini nazorat qilishda o'quvchining o'zi bilan ishlashni takomillashtirish;
3. Bilimni o'zlashtirish yakunida intellektual salohiyati va yosh toifasini inobatga olgan holda yangi innovatsion metod va g'oyalarni kiritish;
4. Texnika-texnologiya asosda masofaviy ta'limni qishloq umumiy o'rta ta'lim maktablari, texnikumlarda joriy qilish (tumanlar, viloyatlar, shaharlar);
5. Maktabda texnika tarixi, rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyatini ko'rsatib beruvchi sahna ko'rinishlarini iqtidorli aktyorlar tomonidan maktab hududida, ma'lum bir vaqtlarda o'tkazilishini ta'minlab berilishi yaxshi yo'lga qo'yish;
6. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun alohida texnikaga oid matbuot materiallari, adabiyotlar chop etish;
7. Umumiy o'rta ta'lim fanlari rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz asarlarini ko'proq bilish borasida turli xil kitobxonlik tanlovlari o'tkazish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim samaradorligini oshirish, yurt ravnaqi uchun hissa qo'shadigan malakali mutahassislar tayyorlash, ta'lim jarayoninidunyo standarti asosida tashkil etishga xizmat qiladi hamda zamonaviy pedagogik raqamli, innovatsion texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning yutuqlarini kafolatlaydi va keyinchalik yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o'qishini, intellektual bilim samaradorligini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoev. YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI – Toshkent - “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet. [1 - 249 bet]
 2. Maslou A. Motivatsiya i lichnost. 3-ye izd./ SPb: Piter, 2009. [4 – 78 bet]
- Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Nihol, 2016.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari [Matn] : darslik / Sh.Sh. Olimov, Sh.X. Samiyeva, N.X. Aslanova, F.J. Ro'ziyev .- Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durдона, 2022. - 240 b. – [5 - 123 bet]

4. U.X.Mingboyev. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash. Ma'ruza matni. Jizzax, 2020 yil, [2 - 15 bet]
5. R.Mavlonova va boshq. Pedagogika. Darslik. 2001 yil, [3 - 106 bet]
6. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi.
7. “Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari”.Q.M.Axmedov,O.A.Ismoilov.T-2012